

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

“TASDIQLAYMAN”
Buxoro davlat pedagogika instituti
rektori B.B.Ma’murov
2026-yil 5 sentabr



**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo‘yicha
kirish imtihoni**

DASTURI


KIRISH

09.00.04-Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha malakaviy imtihoni ilmiy-pedagogik kadrlarni davlat attestatsiyasidan o'tkazishning tarkibiy qismidir. Ijtimoiy hodisalarni yaxlit, bir butun xodisa sifatida tadqiq etish fanning maqsadini tashkil etadi. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun ijtimoiy hodisalarning rivojlanishini, jamiyat hayoti va taraqqiyoti, inson kamolotidagi o'rni va ahamiyatini tahlil qilish kabi vazifalarni bajarilishi bilan bog'liqdir. 09.00.04-Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha tuzilgan malakaviy imtihon dasturi umumiy falsafa fanining bir tarmog'i bo'lib, ilmiy xodimni yuqori malakali mutaxassis bo'lishi uchun eng muhim bilimlarni o'z ichiga oladi. Imtihon topshiruvchi tadqiqotchi yuqori darajada nazariy va amaliy tayyorgarlikka ega bo'lishi, ijtimoiy falsafaning boshqa ijtimoiy-siyosiy fanlar bilan bog'liq ilmiy-metodologik masalalardan xabardor bo'lishi, shu bilan birga u o'z bilimidan ilmiy va amaliy vazifalarni to'g'ri hal etishda foydalana bilishi lozim.

Dasturning maqsadi va ahamiyati tadqiqotchilarda ijtimoiy falsafa fani mohiyati, shakllanish bosqichlari, hozirgi holati, jamiyat hayotidagi o'rni, jamiyat va inson zamon talablari asosida tahlil etib, globallashtirish sharoitida, ma'naviy yangilanish va o'zlikni anglash jarayonlari haqida bilim berishdan iborat.

august Dastur Buxoro davlat pedagogika institutining 2026 yil "28"
dagi Kengashida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Tuzuvchi:  falsafa fanlari doktori(DSc), A.Z.Sharipov

Taqrizchilar:  falsafa fanlari doktori, prof. H.Yu.Salomova
 falsafa fanlari doktori, prof. Q.B.Shodmonov

KIRISH

09.00.04-Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha malakaviy imtihoni ilmiy-pedagogik kadrlarni davlat attestatsiyasidan o'tkazishning tarkibiy qismidir. Ijtimoiy hodisalarni yaxlit, bir butun xodisa sifatida tadqiq etish fanning maqsadini tashkil etadi. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun ijtimoiy hodisalarning rivojlanishini, jamiyat hayoti va taraqqiyoti, inson kamolotidagi o'rni va ahamiyatini tahlil qilish kabi vazifalarni bajarilishi bilan bog'liqdir. 09.00.04-Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha tuzilgan malakaviy imtihon dasturi umumiy falsafa fanining bir tarmog'i bo'lib, ilmiy xodimni yuqori malakali mutaxassis bo'lishi uchun eng muhim bilimlarni o'z ichiga oladi. Imtihon topshiruvchi tadqiqotchi yuqori darajada nazariy va amaliy tayyorgarlikka ega bo'lishi, ijtimoiy falsafaning boshqa ijtimoiy-siyosiy fanlar bilan bog'liq ilmiy-metodologik masalalardan xabardor bo'lishi, shu bilan birga u o'z bilimidan ilmiy va amaliy vazifalarni to'g'ri hal etishda foydalana bilishi lozim.

Dasturning maqsadi va ahamiyati tadqiqotchilarda ijtimoiy falsafa fani mohiyati, shakllanish bosqichlari, hozirgi holati, jamiyat hayotidagi o'rni, jamiyat va inson zamon talablari asosida tahlil etib, globallashtirish sharoitida, ma'naviy yangilanish va o'zlikni anglash jarayonlari haqida bilim berishdan iborat.

Fanning umumiy masalalari

IJTIMOIIY FALSAFA PREDMETI VA VAZIFALARI.

Ijtimoiy falsafaning tushunchalari, apparati, kategoriyalari tizimi, qonunlari. Fan maqomini belgilovchi tamoyillar va belgilar. Ijtimoiy falsafa paradigmalari o'zgarishi. Jamiyat va insonning mohiyati, xususiyatlari, rivojlanish omillari, qonuniyatlari, istiqboli. Jamiyatning vujudga kelishi, tarakqiyot bosqichlari. Jamiyatning ijtimoiy tarkibi, moddiy va ma'naviy hayoti, ommaviy va siyosiy tashkilotlarning rivojlanib, o'zgarib borishi. O'zbekistonning mustaqilligi sharoitida jamiyat va inson falsafasini o'rganish zaruriyati va ahamiyati. Ijtimoiy falsafaning vazifalari: nazariy-metodologik; pedagogik-didaktik; prognozlashtirish, modellashtirish; tashkillashtirish-boshqarish va boshqalar.

IJTIMOIIY ONG VA UNING SHAKLLARI.

Ijtimoiy ong - jamiyat hayotida muayyan ijtimoiy guruhlariga xos qarashlar, g'oyalar tizimi. Ijtimoiy ong tizimining ijtimoiy borliq bilan uzviy bog'liqligi. Ijtimoiy ong shakllarining vujudga kelishi va rivojlanish qonuniyatlari. Ijtimoiy ongning nisbiy mustaqilligi, uning jamiyat xayoti va tarakiyotiga qudratli ta'sir ko'rsatishi.

JAMIYATNING MOHIYATI, SHAKLLARI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.

Jamiyat–tabiatning tarkibiy qismi. Jamiyatning tarixiy rivojlanish shakllari, ularning mohiyati va xususiyatlari. Jamiyatning evolyutsion va revolyutsion taraqqiyoti modellari. Urug', qabila, elat, millatning asosiy belgilari. Jamiyatning yaxlit ijtimoiy birligini ta'minlash omillari va ularning o'zgarish dinamikasi. Kishilik jamiyati tabiat tarakqiyotining muayyan bosqichida vujudga kelgan ijtimoiy munosabatlar yig'indisidir. Jamiyat - odamlar va ular uyushmalari faoliyati oqibatidir. Inson - ijtimoiy munosabatlar obyekt va subyekt. Jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayoti. Iqtisodiyot va ma'naviyatning uzviy bog'liqligi. Ijtimoiy taraqqiyot va inson omili ahamiyatining oshib borish qonuniyati. Mustaqillik sharoitida O'zbekistonda jamiyat taraqqiyotining xususiyatlari.

JAMIYAT RIVOJLANISHIDA TABIIY VA IJTIMOIIY OMILLAR BIRLIGI.

Tabiat va jamiyat, ularning o'zaro bog'liqligi va bir-biriga ta'siri. Tabiiy muhit - jamiyat hayoti va rivojlanishining doimiy va zaruriy shartidir. Axoli - tarixiy jarayonlarning sohibidir. Jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy omillari. Tabiat va jamiyat munosabatlari. Insonning tabiatga ta'siri ishlab chiqaruvchi kuchlari rivojlanish darajasiga, ijtimoiy tuzum xarakteriga,

jamiyat va kishilar kamolot darajasiga bog'liqligi. Mustaqil O'zbekistonda jamiyat rivojlanishida tabiiy va ijtimoiy omillar rolining oshib borishi.

MODDIY VA MA'NAVIY ISHLAB CHIQARISH- IJTIMOIYTARAQQIYOTASOSI.

Moddiy ishlab chiqarish tushunchasi. Ishlab chiqarish - jamiyat bilan tabiatning bir-biriga ta'sir etish jarayoni. Ishlab chiqarish kuchlarining tabiatga ta'siri va uning oqibatlari. Ishlab chiqarish munosabatlari. Ishlab chiqarish usullari. Inson jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchidir. Ilmiy-texnika revolyusiyasi va uning mehnat unumdorligi o'sishiga ta'siri. Ishlab chiqarish kuchlari bilan ishlab chiqarish munosabatlarning o'zaro bog'liqligi. Fanning ishlab chiqarish kuchiga aylanish jarayoni, ishlab chiqarish munosabatlari tizimi, ishlab chiqarishning intellektuallashuvi. Mustaqillik sharoitida ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari rivojlantirish omillari.

JAMIYATNING MA'NAVIY HAYOTI.

«Ma'naviy hayot» tushunchasi. Ma'naviy salohiyat - jamiyat moddiy-iqtisodiy hayotining asosi. Jamiyat ma'naviy hayotida tarixiy merosga vorislik va yangilanish muammolari. Ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish-jamiyat ma'naviy hayotining takomillashtirish omili. Ma'naviy integratsiyaning ijtimoiy-falsafiy masalalari. «Ma'naviy tahdid»lar va ularning yo'nalishlari. «Ommaviy madaniyat» tahdidi, uni bartaraf etish muammolari.

JAMIYATNING MODDIY-IQTISODIY HAYOTI.

Moddiy ne'matlar ishlab chiqarish - jamiyat rivojining zaruriy sharti. Moddiy ehtiyojlarni qondirish va manfaatdorlik jamiyat iqtisodiy hayotining bosh maqsadi. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash buyicha amalga oshirilgan islohotlar. O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH.Mirziyoyevning Vazirlar Mahkamasining Kengaytirilgan majlisidagi nutqi asosida (2017 yil 16 yanvar). Jamiyat iqtisodiy va sotsial taraqqiyotida mehnatning roli. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida mulkchilikning muqobil shakllarini vujudga keltirish zarurligi. Mulk va mehnatga munosabat. Iqtisodiyot va ma'naviyatning uzviy bog'liqligi. Raqobat - bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy hayotning zarur sharti. O'zbekistonda inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida amalga oshirilgan islohotlar.

JAMIYATNING SIYOSIY VA HUQUQIY HAYOTI.

Jamiyatning siyosiy hayotida davlatning o'rni va roli. Demokratik jamiyatda nodavlat tashkilotlarning tutgan o'rni. Siyosiy partiya, jamoat tashkilotlari va ijtimoiy harakatlar demokratik jamiyat siyosiy hayotining tarkibiy qismi. Demokratik qadriyatlarni qaror toptirish siyosiy islohotlarning bosh maqsadi. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish – islohotlar jarayonining strategik maqsadi. Konstitutsiya

-demokratik jamiyatning siyosiy va xuquqiy hayotini takomillashtirishning muhim vositasi. Siyosat va huquqiy madaniyatni takomil-lashtirishda jamoatchilik fikri hamda ta'lim-tarbiya institutlarining o'rni.

JAMIYATNING SOTSIAL HAYOTI.

«Sotsial xayot» tushunchasi. Jamiyat hayotining gorizontal kesimi: sinflar, sotsial guruhlar, ijgimoiy qatlamlar. Mobilik-ochiq demokratik jamiyatning sotsial xayotiga xos hususiyat va uning yo'nalishlari. Jamiyat hayotining vertikal kesimi: sotsial stratifikatsiya, mulkka egalik va mulksizlik. Elita - demokratik jamiyat sotsial tarkibining muxim elementi. Mulkdorlar sinfining shakllanishi va jamiyat taraqqiyotidagi barqarorlikni ta'minlash muammolari. Kuchli ijtimoiy himoya - o'tish davrining asosiy tamoyillaridan biri.

DEMOKRATIK DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI.

«Fuqarolik jamiyati» tushunchasi. Fuqarolik jamiyati barpo etish - jahon ijtimoiy xayotining bosh yo'nalishi. Fuqarolik jamiyatida davlatning o'rni va roli. O'zbekistonda xuquqiy davlat, demokratik jamiyat qurilishining asosiy vazifalari. Fuqarolik jamiyatini barpo etishda siyosiy va xuquqiy madaniyatni takomillashtirish zarurligi. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati barpo etishning o'ziga xos xususiyatlari: yutuqlar, imkoniyatlar va muammolar. Kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tish tamoyili.

IJTIMOIIY SHERIKLIK.

Ijtimoiy sheriklik tushunchasi. Ijtimoiy sheriklikning sohalari. Ijtimoiy sheriklik turlari. Ijtimoiy sheriklik tamoyillari. Ijtimoiy sheriklik qonuniy asoslari, tomonlarning kafolatlari. Fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida ijtimoiy sheriklikni yo'lga qo'yish va rivojlantirishda xalqaro va xorijiy tajribalar.

JAMOATCHILIK NAZORATI SUB'EKTLARI.

Jamoatchilik subyektlari tushunchalari. Jamoatchilik nazorati instituti jamiyatning davlat bilan o'zaro samarali aloqasini ta'minlash. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan qonun xujjatlarining ijro etilishi ustidan jamiyat, fuqarolik institutlari nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmi. Nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar hamda kasaba uyushmalari -jamoatchilik sub'ektlari sifatidagi faoliyati. Ommaviy axborot vositalari esa davlat organlari va jamoatchilik o'rtasidagi mustaxkam aloqa o'rnatuvchi, ma'lumotlar ochiqqligini ta'minlovchi vosita sifatida faoliyati.

FALSAFADA INSON MUAMMOSI.

Sharq va G'arb ijtimoiy falsafasida insonning mohiyati to'g'risidagi muqobil talimotlar. Inson - biosotsial mavjudot. Inson mohiyatining ko'p o'lchamliligi. Ijtimoiy antropologiyaning ijtimoiy -falsafiy masalalari. Inson borlig'i. Insonning kelib chiqishi va mohiyati to'g'risidagi diniy, ilmiy va falsafiy qarashlar tarixi. Insonning kelib chiqishi va inson borligi haqidagi zamonaviy ta'limotlar.

SHAXSNING MOHIYATI VA MAZMUNI.

Shaxs - inson sifati va fazilatlari. "Individ", "shaxs" va "individuallik" tushunchalari, ularning uzviy bog'liqligi va o'ziga xosligi. Shaxsning noyoblighi va takrorlanmasligi. Jamiyat tarakqiyotida shaxsning roli muammosi. Shaxs shakllanishida oila, mahalla, mehnat jamoalari va ta'lim-tarbiya muassasalarining hamkorligi shaxs dunyoqarashining shakllanishi va rivojlanishida jamoat tashkilotlari va o'z o'zini boshqarish tizimining funksonal mohiyati.

SHAXS ERKINLIGI VA MAS'ULIYATI, HUQUQ VA BURCHLARI.

Ijtimoiy falsafada erkinlik va zaruriyat masalasi. Shaxs erkinligi - tarixiy zaruriyatni anglash, ma'naviy kamolotga erishish imkoniyati. Shaxs tiplari. "Shaxs sifatini" belgilovchi xususiyatlar. Shaxs erkinligi va mas'uliyatining uzviy bog'liqligi. Shaxs o'z-o'zini tarbiyalovchi va o'z-o'zidan rivojlanuvchi sistema. Shaxs faolligi mezonlari va yo'nalishlari. Shaxs erkinligi, tashabbuskorligi va mustaqilligini kuchaytirish - fuqarolik jamiyati shakllanishining muhim omili.

HOZIRGI ZAMON UMUMBASHARIY MUAMMOLARI.

Hozirgi zamon umumbashariy muammolarining mohiyati va xususiyatlari. Muammolarni turkumlashtirish yo'nalishlari. Yer yuzida tinchlikni saqlash, yadroviy urushning oldini olish, xalqaro xavfsizlikni ta'minlash muammosi. Butun dunyoda tabiat boyliklarini asrash, ulardan oqilona foydalanish, tabiatni muxofaza qilish; Ekologik hal qilish, jahonda yuqumli kasalliklarning tarqalib ketishiga yul qo'ymaslik. Rivojlanayotgan mamlakatlarga yordamni kuchaytirish. Halqaro terrorizm, ekstremizm, korrupsiyaga qarshi kurash.

Umumbashariy muammolarni hal qilishda xalqaro hamkorlikni yanada kuchaytirish imkoniyati va zaruriyatining oshib borishi. Umumbashariy muammolarni xal qilishda O'zbekiston Respublikasining xissasining ortib borishi.

"O'ZBEK MODEL" IJTIMOYIY TARAQQIYOT YO'LI.

Jaxon sivilizatsiyasini rivojlantirish - ijtimoiy- falsafiy muammo. Jaxon sivilizatsiyasini shakllantirishning muhim asoslari. Jahon sivilizatsiyasi - mahalliy sivilizatsiyalar, Sharq va G'arb sivilizatsiyalari ilg'or tomonlari va yutuqlarining uyg'unlashuvi natijasi. O'zbekiston ijtimoiy taraqqiyotining betakror va o'ziga xosligi. Taraqqiyotning "o'zbek modeli". O'zbekistonda huquqiy davlat shakllanishining tarixiy asoslari. Ijtimoiy rivojlanishning tadrijiyligi, milliy mentalitet va salohiyatigi mosligi.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining asosiy yo'nalishlari

«Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari» tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish. Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish. Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash. **Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish, adolat va qonun ustuvorligi tamoyillari.** Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish borasidagi islohotlarning asosiy maqsad-vazifalari. Mahalla instituti, mahalliy boshqaruv organlari, OAV lari faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish vazifalari. Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish erkin fuqarolik jamiyatining muhim sharti ekani. **Yangi O'zbekiston g'oyasi va Uchinchi Renessansning beshta muhim halqasi faoliyatini muvofiqlashtirish vazifalar.** Yangi O'zbekiston orzusi. Yangi O'zbekiston tushunchasi va uning asosiy mezonlari. Yangi O'zbekiston barpo etish strategik vazifa sifatida. Sh.Mirziyoevning "Buyuk kelajak bugundan boshlanadi" da'vatining mohiyati. Renessans uyg'onish, ilmiy uyg'onish, ma'rifatni anglash demakdir. Renessans poydevorini barpo etish masalalari.

Sh.Mirziyoev tomonidan Uchinchi renessans masalasini strategik masala sifatida milliy g'oya darajasiga ko'tarilishi va uning asosiy sabablari.

Yangi O'zbekiston va Uchinchi renessansning ijtimoiy, ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy ildizlarining zamonaviy sivilizatsiyadagi ahamiyati.

Buyuk tamaddunga asos solgan Zamin. Uchinchi renessansning ijtimoiy, ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy ildizlari. Renaissance tushunchasi, mohiyati. Evropadagi renessans vakillari. Markaziy Osiyoda IX-XII asrlardagi ilmiy-madaniy ko'tarilish, uning jahon ilm-fani rivojiga ulkan ta'siri. Al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Zamahshariy kabi allomalarimizning umumbashariy taraqqiyotga qo'shgan beqiyos hissi. **Temuriylar davri Sharq madaniyatining oltin asri sifatida.** Ikkinchi renessans davrining buyuk vakillari: Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug'bek, G'.Koshiy, Ali Qushchi, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo. Uchinchi renessansning ijtimoiy, ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy ildizlarini o'rganish Yangi renessans barpo etishning muhim omili ekanligi.

Ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotda badiiy adabiyot va tasviriy san'atning tutgan roli. Yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalashda Mustaqillik uchun kurash olib borgan milliy qahramonlar faoliyatidan foydalanish.

Ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotda badiiy adabiyot va tasviriy san'atning tutgan roli. Yoshlar qalbiga yo'l topishning asosiy vositalari. Badiiy adabiyot — so'z san'ati, insonning ruhiy faoliyati mahsuli. Badiiy adabiyotning jamiyat hayotida bajarayotgan ijtimoiy funksiyalari (vazifalar). Badiiy adabiyotning insonni komillikka etaklashda, jamiyatni mukammallashtirishdagi ahamiyati. Adabiyot yashasa – millat yashaydi. "Badiiy adabiyot dunyoni o'zgartiradi" degan tamoyilning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati. Yoshlarda milliy qadriyatlarga hursat ruhini tarbiyalashda tasviriy san'atning roli. Vatan ozodligi – oliy qadriyat. Mustaqillik uchun olib borilgan kurashlarga boy tariximizning shonli sahifalari. Ahamoniylar va yunon- makedon bosqinchilariga qarshi kurash olib borgan milliy qahramonlarimiz jasorati. Mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashgan milliy qahramonlarimiz jasorati yuksak vatanparvarlik namunasi. Chor Rossiyasi va mustabit tizim davrida milliy ozodlik uchun harakatlar. I.Karimovning milliy mustaqillik uchun kurashdagi faoliyati. Yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalashda mustaqillik uchun kurash olib borgan milliy qahramonlar faoliyatidan foydalanish.

Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy- iqtisodiy islohotlar yechimining muhim omili.

Yoshlarda ogohlik va daxldorlik tuyg'ularini tarbiyalashda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning tutgan roli. Yangi O'zbekiston iqtisodiyotining huquqiy asoslari. Inson manfaatlari iqtisodiy islohotlarning bosh mezon. Iqtisodiy strategiyaning ustuvor yo'nalishlari. Taraqqiyot strategiyasida aholi salomatligi va genofondiga ziyon etkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish borasidagi islohotlar.«Yashil makon» umummilliy loyihasini amalga oshirish. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirish.

Korrupsiyaga moyil soha va tarmoqlarni aniqlash, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish.

O‘ZBEKISTONDA MA’NAVY-AXLOQIY VA IJTIMOY TAHDIDLARGA QARSHI KURASH

Ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy tahdidlarning kelib chiqish sabablari. Tahdidlarning turlari va unga qarshi choralari haqida. O‘zbekistonda ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy tahdidlarga qarshi qurash buyicha olib borilayotgan chora-tadbirlar. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni asrab-avaylash, jamiyat ma’naviy-axloqiy sog‘lomligining kafolati. “Ommaviy madaniyat”ning ko‘rinishlari, unga munosabat. “Ommaviy madaniyat” taxdidi va globallashuv xususiyatlari. Yoshlarni ona Vatanga muxabbat, boy tarixga, ota-bobolarning muqaddas diniga sadoqat ruxida tarbiyalash, ularning qalbi va ongida kurashning samarali usuli sifatida. Xalqaro terrorizm, ekstremizm, korrupsiyaga qarshi kurash.

Milliy g‘oya va ma’naviy xayot Ma’naviy qadriyatlar va milliy o‘zlikni anglashning tiklanishi (O‘zbekiston Respublikasining Birinchi prezidenti I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat -yengilmas kuch” asari asosida).

Yangilanayotgan O‘zbekiston: milliy tiklanishdan -milliy yuksalish sari

Mamlakatimizda ilm-fan sohasida erishilayotgan yutuqlar, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma’naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko‘tarish maqsadida olib borilayotgan islohotlar haqida. “Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari” degan dasturiy g‘oya asosida yoshlarni tashabbuskorlik, fidoyilik hissini hamda axloqiy fazilatlarni shakllantirishning ahamiyati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev Yangi O‘zbekistonning novator rahbari sifatida

Sh.M. Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimidagi faoliyatining boshlanishi (2016). Prezident Sh.M. Mirziyoyev boshchiligidagi amalga oshirilayotgan islohotlar, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining mohiyati va ahamiyati, davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, iqtisodiyotni rivojlantirish, ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar.

Harakatlar strategiyasi: jadal taraqqiyot va yangilanish modeli

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 2017-2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini hayotga tatbiq etilishi. Mamlakatda olib borilayotgan islohotlarni yangi bosqichga ko‘tarish. 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta

ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi doirasida oʻtgan davr mobaynida amalga oshirilgan tizimli ishlar, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etilishi, inson huquqlarini taʼminlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish. Xalq turmush darajasini yanada farovon, mamlakatni yanada qudratli boʻlishi uchun harakatlar.

Taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari

Oʻzbekistondagi davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etish, Yangi Oʻzbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-maʼrifiy asoslarini yaratish. Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib oʻtgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda “inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan isdohotlarning ustuvor yoʻnalishlarni belgilab bergan 2022-2026 yillarga moʻljallangan “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyilini oʻrganish. Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasining yetita ustuvor yoʻnalishi: inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish; mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish; milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori oʻsish surʼatlarini taʼminlash; adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish; maʼnaviy taraqqiyotni taʼminlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish; milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish; mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish. Taraqqiyotning yangi bosqichida Yangi Oʻzbekiston hukumatining Respublikamizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish borasida amalga oshirayotgan islohotlar strategiyasi mazmuni bilan tanishtirish.

Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish

Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch boʻgʻiniga aylantirish, xalq deputatlari Kengashlarini hududlarda mavjud muammolarni hal qilishdagi asosiy boʻgʻinga aylantirish. Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining institutsional asoslarini zamon talablariga moslashtirish, adolatli, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimini joriy qilish. Mamlakatdagi islohotlarni izchil davom ettirishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada oshirish, norma ijodkorligi jarayonini modernizatsiya qilish, qonunchilik hujjatlarining qatʼiy ijrosini taʼminlash, “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish, davlat fuqarolik xizmati tizimini zamonaviy standartlar asosida tashkil etish, xalq bilan muloqotning mexanizmlarini takomillashtirish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.

Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish

Mulkiy huquqlarning daxlsizligini ishonchli himoya qilish hamda davlat organlarining

mulkiy munosabatlarga noqonuniy aralashuvini cheklash, qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylilikni ta'minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezon sifatida belgilash. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati usidan samarali sud nazoratini o'rnatish hamda fuqaro va tadbirkorlik sub'yektlarining odil sudlovga erishish darajasini oshirish, jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini yaratish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadr-qimmat, huquq va erkinliklarni samarali himoya qilishga yo'naltirish, aholi va tadbirkorlik sub'yektlarining malakali huquqiy xizmatlarga bo'lgan talabini to'liq qondirish, faol fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda fuqarolar o'rtasida qonunga hurmat va itoat qilish hissini shakllantirish.

Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish suratlari taminlash

Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni oshirish hamda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish, milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirish.

Geologiya-qidiruv ishlari hajmini keskin oshirish, sohaga xususiy investorlar va ilg'or xorijiy kompaniyalarni keng jalb qilish, "yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20% ga oshirish. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini ko'tarish, qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish, suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish, chorvachilik ozuqa bazasini kengaytirish va ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, hududlarning muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tizimini hamda xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish, mahalliy sayyohlar va xorijiy turistlar sonini oshirish, transport tizimini rivojlantirish.

Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish

Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish va bu jarayonda nodavlat ta'lim muassasalarining ishtirokini oshirish, maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish va byudjet mablag'larining maqsadli hamda samarali sarflanishini ta'minlash, maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish, 2026 yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqish. Maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish, oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish, 2026 yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta'lim muassasasini QS va THE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash, "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygohlarga o'qishga yuborish ko'lamini 2 baravarga oshirish, bunda yoshlarning 50 foizini texnik, aniq fanlar va IT sohalariga o'qitish, global innovatsion indeksda O'zbekiston Respublikasining o'rnini yaxshilash va 2030 yilga qadar top-50 mamlakatlari qatoriga kirish, aholi ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish, ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni aholiga yanada yaqinlashtirish va qulayligini oshirish maqsadida respublika hududlarida tibbiyot klasterlarini tashkil etish, tibbiy xizmatlardagi xususiy sektorning

ulushini 25 foizga yetkazish. Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xalqaro maqomga ega laboratoriyalarini tashkil etish, nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.

Manaviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish

Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari" g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish, aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda "Kitobsevar millat" umummilliy g'oyasini ro'yobga chiqarish, kitobxonlik madaniyatini oshirish, ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish, tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishlarini rivojlantirish, aholining badiiy-estetik didini yuksaltirish, madaniyat va san'at sohalarini yanada rivojlantirish, milliy kino san'atini rivojlantirish, O'zbekiston tarixini o'rganish, targ'ib qilish va tarixiy badiiy asarlar yaratish.

Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish

